

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI  
NUKUS FILIALI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PHD.13/05.05.2023.T.162.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT  
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI NUKUS FILIALI**

**AXRALOV SHAVKAT SULAYMONOVICH**

**YER OSTI GIDROSFERASINING AVTOMATLASHTIRILGAN  
MONITORINGI ASOSIDA GEOMIGRATSIYA JARAYONLARINING  
MODELINI ISHLAB CHIQISH**

**05.01.10 – Axborot olish tizimlari va jarayonlari**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Nukus 2024**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on technical sciences**

**Axralov Shavkat Sulaymonovich**

Yer osti gidrosferasini avtomatlashtirilgan monitoringi asosida geomigratsiya jarayonlarining modelini ishlab chiqish .....3

**Ахралов Шавкат Сулаймонович**

Разработка модели геомиграционных процессов на основе автоматизированного мониторинга подземной гидросферы .....21

**Ahralov Shavkat Sulaymonovich**

Development of a model of geomigration processes based on automated monitoring of the underground hydrosphere .....41

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....44

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT  
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI NUKUS FILIALI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PHD.13/05.05.2023.T.162.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI NUKUS  
FILIALI**

**AXRALOV SHAVKAT SULAYMONOVICH**

**YER OSTI GIDROSFERASINING AVTOMATLASHTIRILGAN  
MONITORINGI ASOSIDA GEOMIGRATSIYA JARAYONLARINING  
MODELINI ISHLAB CHIQISH**

**05.01.10 – Axborot olish tizimlari va jarayonlari**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Nukus 2024**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.4.PhD/T1427 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida ([www.tuit.uz](http://www.tuit.uz)) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Djumanov Jamoljon Xudayqulovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Yakubov Maqsadxon Sultaniyozovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Elov Botir Boltayevich**  
texnika fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent


**Yetakchi tashkilot:**

**Buxoro muxandislik texnologiyalari inistituti**

Dissertatsiya himoyasi Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nukus filiali huzuridagi Phd.13/05.05.2023.T.162.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 26 iyul da soat 16 da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230103, Nukus shahri, A. Dosnazarov ko'chasi. 74-uy. Tel.: (99861) 222 49 10; e-mail: [tatunf@tatunf.uz](mailto:tatunf@tatunf.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (2 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230103, Nukus shahri, A. Dosnazarov ko'chasi. 74-uy. Tel.: (99861) 222 49 10.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "15" iyul kuni tarqatildi.  
(2024-yil "12" iyul da 2 raqamli reestr bayonnomasi).



*B.T. Kaipbergenov*

**B.T. Kaipbergenov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
texnika fanlari doktori, professor

**R.I. Oteniyazov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
texnika fanlari doktori, professor

**K.K. Seitnazarov**  
Ilmiy kengash huzuridagi  
ilmiy seminar raisi,  
texnika fanlari doktori professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda axborot tizimlar, matematik usullar va zamonaviy qurilma - dasturiy ta'minotlar asosida ma'lumotlar yig'ish, saqlash, ishlov berish, uzatish va taqdim etish jarayonlarini, xususan, tog'-kon sanoati geologiyasi monitoringini yuritish, yer osti suvlari holati, harorati va sathi o'zgarishi bilan minerallasuvi darajasiga hamda ichimlik suviga doir masalalarga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda jumladan, AQSH, Kanada, Yaponiya, Angliya, Daniya, Fransiya, Germaniya, Niderlandiya, Xitoy, Koreya, Rossiya Federatsiyasi, Hindiston va boshqa mamlakatlarda suv resurslarini boshqarish jarayonlarini mukammal tadqiq qilish uchun axborot tahliliy tizimlar, matematik modellar va hisoblash algoritmlarini amaliyotga joriy qilish belgilangan. Bu borada, jumladan, yer osti gidrosferesini avtomatlashgan monitoringini yuritish, ma'lumotlar oqimiga ishlov berish va boshqarish, vaqt bo'yicha yer osti suvi harakati qonuniyatlarini aniqlash tizimi, algoritmlari va dasturiy vositalarini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda suv resurslarini katta hajmli ma'lumotlar oqimi sifatida o'rganish, yer osti suvlari xarakati va gidrogeologik jarayonlarni suv resurslarining hududiy taqsimlanishidagi ulushini kompyuter tarmoqlari va intellektual axborot tizimlar asosida baholash bo'yicha muhim ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan, yer osti suvlari sathi, harorati va sifat darajalarining o'zgarishi bo'yicha monitoring yuritish, axborot tahlil tizimlari asosida avtomatlashtirilgan boshqaruv tadqiqotlari ustuvor hisoblanmoqda. Bu borada axborot almashinuvining uzluksizligini ta'minlash, geofiltratsiya va geomigratsiya jarayonlarini modellashtirish, hisoblash algoritmlarini va axborot ta'minoti hamda dasturiy vositalarini ishlab chiqish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga doir yangi axborot tizimlarni yaratish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish va ularni joriy etish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»<sup>1</sup> PF-60-son farmonida, jumladan "...milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atini ta'minlash, zamonaviy texnologiyalarini keng joriy etgan holda axborot tahlil tizimini yo'lga qo'yish hamda ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish" vazifalari berilgan. Xususan, istiqbolli yer osti suvi konlarini aniqlashda, yer osti suv resurslari axborot tizimi va geoaxborot modellarini yaratish hamda amaliyotga joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda tabiiy va texnogen tizimlarning gidrorejim omillari va gidrogeologik sharoitlarini tavsiflovchi geofiltratsiya jarayonlarining matematik modeli va geoaxborot tuzilmasini yaratish, axborot ta'minoti va boshqaruv jarayonlarini tahlil qilish, qaror qabul qilish faoliyatini qo'llab-quvvatlash usullarini hamda dasturiy vositalarini ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 oktabrdagi “Suv resurslarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4486-son qarori va 2020 yil 10 iyuldagi «O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-6024-son farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yonalishlarga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV – «Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish» hamda VIII – «Yer haqidagi fanlar (geologiya, geofizika, seysmologiya va mineral xomashyoni qayta ishlash)» kabi ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi<sup>2</sup>.** Yer osti suvlari monitoringi, axborot-tahlil dasturiy ta‘minotidan foydalanishning yangi yondashuvlari, axborotlarni boshqarish nazariyasi va amaliyotini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishni, ayniqsa, qatiymas to‘plamlar va graflar nazariyasi asosida qaror qabul qilish siklining vaqtini qisqartirish orqali boshqaruv samaradorligini oshirish yo‘llarini tadqiq qilindi. Axborot tahlil tizimlari sohasida L.Zade, T.Saati, M.Kristofer, R.Bellman, V.S.Lukinskiy, A.A.Sorokin, D.Uoters, M.Svami, D.A.Ivanov, I.K.Gavich, F.M.Bochever, va boshqalar, geografik axborot tizimlari va texnologiyalarini ishlab chiqish va qo‘llash sohasida V.G.Bondur, A.M.Berlyant, V.S.Tikunov, K.Kahskarev, A.D.Ivannikov, V.Ya.Tsvetkov va boshqalar hamda monitoringda intellektual tizimlar sohasida S.Pospelov, G.S.Osipov, T.A.Gavrilova shuningdek, boshqa bir qator xorijiy olimlar tadqiqotlarida ko‘rib chiqilgan.

O‘zbekistonda yer osti suvi monitoringi axborot tizimlari, yani gidrogeologik jarayonlarini modeli, intellektual ko‘p bosqichli boshqaruv komplekslari, jumladan, avtomatlashtirilgan monitoring asosida tashkil etilgan bo‘lib, ular tezkor axborot almashinuvining uzluksizligini ta‘minlash va tunu kun kuzatuv masalalarini samarali hal etishni N.N.Xojibayev, U.U.Umarov, F.B.Abutaliyev, T.F.Bekmuradov, I.Habibullayev, R.N.Usmonov, J.Djumanov, V.N.Sokolov, A.A.Mavlonov, V.S.Sheglov, I.N.Gracheva, A.Ergashev kabi olimlar tadqiq qilganlar hamda salmoqli ilmiy natijalarga erishgan.

Sohaga oid tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, monitoring tizimini takomillashtirish dasturiy ta‘minotini, axborot jarayonlarini tavsiflashning o‘ziga xos xususiyatlari, xususan, yagona makonda axborot jarayonlarining tegishli modellarini yaratish hisobga olinmagan. Suv resurslari, jumladan: yer osti va yer usti suvlari minerallasuvi miqdoriining o‘zgarishi jarayonlari, ichimlik suvi manbaini yer osti suvlari zaxiralari o‘zgarishini baholash bilan bog‘liq holda har tomonlama tadqiq etish masalalari yetarli darajada o‘rganilmagan.

---

<sup>2</sup>Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar sharhi <https://www.scopus.com>, <https://www.elsevier.com>, <https://www.researchgate.net>, <http://www.usgs.gov>, <https://www.msu.ru>, va boshqa manbalar asosida shakllantirilgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqotlari Toshkent axborot texnologiyalari universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining № ББ-Атех-2018 (399+487) "Gidrogeologik jarayonlarni uch o'lchamli modellarini tuzish va ikki komponentli muhitda diffusion jarayonlarni sonli modellashtirish uchun amaliy dasturiy paketlar yaratish" (2018-2019), № И-АТ-2021-493 "Yer osti suvlarining sathini, haroratini va elektr o'tkazuvchanligini masofadan aniqlovchi innovatsion uskuna yaratish" mavzularidagi loyihalari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqot ishining maqsadi** yer osti gidrosferesining avtomatlashgan monitoringi samaradorligini oshirishda geomigratsiya jarayonlarining modelini va axborot-tahlil tizimlarini ishlab chiqishdan iboratdir.

**Tadqiqot ishining asosiy vazifalari:**

gidrogeologik monitoringni yuritishda axborot oqimlari modelini qurish jarayonini va avtomatlashtirilgan o'lchov usullari asosida yer osti suvlari o'zgarishi holatini aniqlash axborot-tahlil tizimlarini o'rganish;

yer osti suvi konlarining shakillanishi, suv sathi va sifat o'zgarishi nazariyasiga asoslangan holda tabiiy tizimlar monitoring jarayonlarining matematik modeli va geoaxborot tuzilmasini ishlab chiqish;

yer osti suvi konlarini istiqbolligini o'rganishda gidrogeologik tizimlar geofiltratsiya va geomigratsiya jarayonlarini matematik modeli, yechish algoritmlari hamda dasturiy vositalarini ishlab chiqish;

gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi tizimlarning axborot ta'minoti va axborot boshqaruv jarayonlarini tahlil qilish, boshqaruv faoliyatini qo'llab-quvvatlash usullarini ishlab chiqish hamda monitoring faoliyatining axborot almashinuvi infratuzilishini yaratish (Ohangaron yer osti suvi koni misolida).

**Tadqiqot ishining obyekti** sifatida yer osti suvlari monitoring jarayonlari va tog'-kon sanoat geologiyasi va gidrogeologik axborot tizimlari olingan.

**Tadqiqot ishining predmeti** yer osti suvlarining avtomatlashtirilgan o'lchov monitoring jarayonlarini takomillashtirishda axborot tizimlarini yaratish usullari, modellari va algoritmlari hamda dasturiy vositalari hisoblanadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot jarayonida axborot tizimlari va modellari nazariyasi, tashkiliy tizimlarni boshqarish nazariyasi, gidrogeologik rejim ma'lumotlarini tizimli tahlili, avtomatlashgan o'lchov monitoringi, hisoblash matematikasi, modellashtirish va hisob-eksperiment usullari, shuningdek, dasturiy modullarni loyihalash va axborot tizimiga integratsiya qilish, real axborot massivlari bo'yicha dasturiy vosita yaratishda obyektga yo'naltirilgan dasturlash texnologiyalaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

gidrogeologik monitoring yuritishda axborot oqimlari modeli va avtomatlashtirilgan o'lchov asosida yer osti suvlari holatining o'zgarishini aniqlash usuli ishlab chiqilgan;

tabiiy va texnogen tizimlarning gidrorejim omillari asosida gidrogeologik sharoitlarini tavsiflovchi monitoring jarayonlarining matematik modeli hamda geoaxborot tuzilmasi ishlab chiqilgan;

yer osti suvi konlarini istiqbolligini asoslashda gidrogeologik tizimlarning geofiltratsiya va geomigratsiya jarayonlarini matematik modeli, sonli yechish algoritmlari hamda dasturiy vositasi ishlab chiqilgan;

gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi tizimlarining axborot ta'minoti, axborot resurslarini boshqaruvi jarayonlarini tahlil qilish hamda qaror qabul qilish faoliyatini qo'llab-quvvatlash usullari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

gidrogeologik monitoring yuritilishida yer osti suvi konlarini geofiltratsiya jarayonlari va gidrorejim tashkil etuvchi elementlarining axborot tizimlari hamda dasturiy vositalari ishlab chiqilgan;

o'zgargan gidrogeologik sharoitlarni hisobga olgan holda suv tutuvchi qatlamda yer osti suvlari sathi va minerallashuvi darajasi o'zgarishlarini axborot-tahlil tizimi va bashorat qilish uchun dasturiy majmuasi ishlab chiqilgan;

gidrogeologik tizimlarning geofiltratsiya va geomigratsiya jarayonlarini matematik modeli, sonli yechish algoritmlari va dasturiy majmuasi asosida yer osti suvlari axborot tizimi yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Gidrogeologik monitoring ma'lumotlari muntazam ravishda olinishi, aniqligi va to'liqligini axborot tizimida foydalanilgan matematik ifodalar va gidrogeologik shartlarning geofiltratsiya jarayonlari qonuniga qat'iy mosligi hamda ma'lumotlar an'anaviy usullar hisobiy va tajribaviy natijalarning o'zaro muvofiqligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan axborot tizimi va monitoring jarayonlari modeli yer osti suvlari sathi va sifati o'zgarishida sodir bo'layotgan hodisalar o'rtasidagi qonuniyatlar, tendensiyalar va munosabatlarni hisoblash nazariyasi va amaliyoti rivojiga qo'shgan hissasi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati yaratilgan axborot tizimlari va o'lchov faoliyatini avtomatlashtirish jarayonlari dasturiy majmuasi bilan muntazam geofiltratsiya jarayonlarini bashorat qilish, hisoblash vaqtini va suv resurslardan foydalanishni mukammallashtirish masalalarini hal qilish bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Yer osti gidrosferasini avtomatlashgan monitoring asosida geomigratsiya jarayonlarini modellashtirish va samarali sonli hisoblash algoritmlari bo'yicha olingan natijalar asosida:

gidrogeologik monitoringni yuritishda axborot oqimlari modeli, avtomatlashtirilgan o'lchov asosida yer osti suvlari holatining o'zgarishini aniqlash usuli va gidrogeologik shart-sharoitlarini tavsiflovchi geofiltratsiya jarayonlarining matematik modeli va geoaxborot tuzilmasi O'zbekiston Respublikasi Geologiya va mineral resurslar Davlat qo'mitasi "O'zbekgidrogeologiya" Davlat unitar korxonasi Ohangaron gidrogeologik stansiyasida joriy etilgan (Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligining 2022 yil 5 fevral 03-8/17-son ma'lumotnomasi). Natijada yerosti suvi sathi va minerallashuvining o'zgarishini bashoratlash hamda muhandislik hisoblarini o'tkazishga ketadigan vaqt va mehnat sarfini 4-6% ga qisqartirish imkonini bergan;

yer osti suvi konlarini istiqbolligini asoslashda gidrogeologik tizimlarning geofiltratsiya va geomigratsiya jarayonlarini matematik modeli, sonli yechish



algoritmлари hamda gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi tizimlarining axborot ta'minoti, axborot resurslarini boshqaruvi jarayonlarini tahlil qilish, qaror qabul qilish faoliyatini qo'llab-quvvatlash usullari O'zbekiston Respublikasi Geologiya va mineral resurslar Davlat qo'mitasi "O'zbekgidrogeologiya" Davlat unitar korxonasi Ohangaron gidrogeologik stansiyasida joriy etilgan (Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligining 2022 yil 5 fevral 03-8/17-son ma'lumotnomasi). Natijada geomigratsiya jarayonida yer osti suvlari sifati o'zgarishi baholangan hamda muhandislik hisoblarida vaqt va mehnat sarfini 0,12 marta qisqartirish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 9 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilindi.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi buyicha 25 ta ilmiy ish chop etilgan. Shundan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 10 ta ilmiy maqola, jumladan 2 ta xorijiy va 8 ta respublika nashrlarida chop etilgan hamda 2 ta EHM uchun yaratilgan dasturiy vositalariga qayd qilish guvohnomalari olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topib, 120 betdan iboratdir.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Dissertatsiyaning kirish qismida** dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriylik darajasi asoslab berilgan, maqsad va vazifalar shakllantirilgan, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo'nalishiga mosligi belgilangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ko'rsatib o'tilgan, olingan natijalarning haqqoniyligi asoslab berilgan, natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga tadbiiq etilishi ro'yxati, ishni sinov natijalari, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Yer osti gidrosferasini avtomatlashgan monitoringi va axborot jarayonlari"** deb nomlangan birinchi bobida jahonda va respublikamiz miqyosida gidrogeologik monitoringini yuritishda axborot oqimlari modelini qurish va gidrorejim elementlarini avtomatlashtirilgan o'lchovi, axborot-tahlil tizimlarini hududiy taqsimlanish xususiyatlarining matematik modeli va gidrogeologik sharoitlarini tavsiflovchi monitoring jarayonlarining geoaxborot tuzilmasi bo'yicha usullar, modellar va algoritmarga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlar, maqolalar atroflicha tahlil qilingan. Yer osti suvi sathi va minerallashuvi jarayonlarini ifodalovchi ilmiy manbalar, usullar sharhi amalga oshirilgan va masalaning qo'yilishi, tadqiqot ishining maqsadi hamda vazifalari shakllantirilgan.

Tadqiqot doirasida asosan Davlat gidrogeologik rejim kuzatuv xizmati, ya'ni Respublika yer osti suvlari monitoring jarayonlari – muntazam kuzatuvlar va muayyan tashkiliy maqsadlarga erishishga qaratilgan ishlar ketma-ketligi, suv resurslarni o'lchash, kuzatish va boshqarish bilan bog'liq bo'lishi, davlat

gidrogeologik rejim kuzatuv xizmati jarayonlarida hududiy xaritalar, sxemalar, diagrammalar yoki matnli tasvirlar ko‘rinishida tavsiflash (1-jadval) amalga oshirilgan. Axborot tizimlarini monitoring yuritilishida ma‘lumot kiritish yoki uzatish, uzluksiz zanjir asosida olingan natijalarni boshqarish, axborot tizimlarini rejalashtirish va ishlab chiqish halqaro adabiyotlar tahlilida uslublar, me‘yoriy chegaralar bilan samaradorlikni o‘lchash, risklarni baholash sharhlari o‘rganildi.

**Axborot tizimining ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish mumkin bo‘lgan MB.**

1-jadval

Ecotizimlar va atrof muhit uchun									
Qishloq va suv ho‘jaligi uchun									
D11	Sanoat va ishlab chiqarish uchun								
D21	C11	Ichimlik suvi ta‘minoti uchun							
D31	C21	B11	№	Masalaning qo‘yilishi A11	Dinamik xarakterlar A12	Bosim A13	Holati A14	Ta‘siri A15	Chora tadbirlar A15
D41	C31	B21	A21	Oziqlantiruvchi moddalarni ko‘payishi	Yerlarni qayta ishlash intensivligi	Azot elementlari darajasi	Nitrat va yer osti suvlari	Nitrat ichimlik suvlari	Mineral va organik elem. nazorati
D51	C41	B31	A31	Zaxarli moddalar bilan ifloslanishi	Kimyo sanoati kengayishi	Og‘ir metallar darajasi	Og‘ir metallar konsentratsiyasi	Ichimlik suv ta‘minoti masalalari	Toksik tarkibning o‘zgarishi nazorati
	C51	B41	A41	Suv sathini pasayishi	Iqtisodiy rivojlanish	Ichimlik suv ta‘minoti	Suv sathini pasayishi	Xosildorlik pasayishi	Ichimlik suv olinishi
		B51	A51	Sho‘r suvning kirib kelishi	Ijtimoiy rivojlanish	Sanoat suv ta‘minoti	Xlor konsentratsiyasi	Ichimlik suv sifati pasayishi	Avtomatik monitoring
			A61	Suv olish inshooti	Ekologik rivojlanish	Ko‘p suv olish	Suv harorati o‘zgarishi	Ichimlik suv miqdori pasayishi	Sun‘iy to‘yintirish

Gidrogeologik tadqiqotlarda axborot oqimini boshqarishning muayyan masalasini o‘rganishda suv resurslari manbai, taqsimlanishi, ta‘sir oqibatlari, geofiltratsiya va geomigratsiya jarayonini sonli modellashtirish hamda ko‘rilgan choralar haqida xorijiy va respublika olimlari ilmiy ishlari va adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, gidrogeologik tadqiqotlarda ko‘plab hududlarda axborot tizim va matematik model asosida o‘rganish amalga oshirilmagan. Bularni joriy qilishni zamonaviy gidrogeologik masalalarni amaliy yechish quyidagi muhim yetishmovchiliklarni tavsiflaydi: axborot tizimi va hisoblashlar sxemashtirilishiga yetarli e‘tiborning berilmasligi, yani qo‘llanilayotgan dastur bilan uning asosidagi sonli usullar va sxemalash orasidagi bog‘lanishlar zaifligi, ayrim xollarda tadqiqot samaradorligini susaytiradi; gidrogeologik shart-sharoitlarni aniqlash tadqiqotlarining chegaralanganligi, ya‘ni real obyektlarni (amaliy) baholashda axborot tizimi sxemasiga mos gidrogeologik turdagi sohani mukammal aniqlash hamda obyektiv taqqoslashni amalga oshirishni imkoni yetarli emasligi; yaratilayotgan dasturiy kompleks vositalarining imkoniyatlarida gidrogeologik obyekt tuzilishini kerakligicha nazarga olish, yuqori pog‘onali masalalarni yechishda olingan natijalarni tahlilida hisobga olinmay qoladi; axborot oqimi dasturiy vositalarining

yagona qayd qilish, ro'yxatdan o'tkazish va amalga oshirish hamda rasmiylashtirishining, ya'ni dastlabki ma'lumotlarni kiritish yoki chiqarishni standart ko'rinishga keltirilmaganligi, dasturdan foydalanishning noqulayligi, bu o'z navbatiada natijalarni zamonaviy dasturiy komplekslarda mos kelmaganligi yoki tahlil qilib bo'lmashligidir; kamchilik va chekliligina ilmiy tadqiqotlar modellashtirish asosida amalga oshirilganligi, mutaxassislarni yetishmovchiligi, mustaqil ish olib boruvchilarga yer osti suvi sathi, harorati, minerallasuvi, dinamikasi va rejim ma'lumotlari noravshanligidir; modelda dastlabki gidrogeologik ma'lumotlar taqchilligi va aniqmasligi, zamonaviy texnologiyalardan foydalanmasligi samaradorlikni susaytirsa, gidrogeolog mutaxassisning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy jihatlari emperik pog'naga tushadi.

Yuqoridagilarni e'tiborga olib, gidrogeologik masalalarni yechishda axborot tizimi, bazasi, hisoblashni amaliy eksperimentlar asosida bashoratlash, epignozlash, mukamallashtirish hamda qaror qabul qilish uchun ko'maklashuvchi baza yaratildi. Axborot tizimlari va monitoringga bo'lgan ehtiyojning rivojlanishi suv xo'jaligi rivojlanishi maqsadlarga erishish yoki siyosat o'zgarishi bilan yangi axborot ehtiyojlari paydo bo'lishi axborotga bo'lgan ehtiyojning evolyutsiyasi yondashuvini yangilash uchun tegishli axborot to'plash va monitoring strategiyalarini muntazam qayta ko'rib chiqishni talab qiladi (1-jadval).


Dissertatsiyaning **“Axborot tizimlarining kognitiv modellari, tizimlashtirish va tashkil etish tamoyillari”** deb nomlangan ikkinchi bobida yer osti suvlari monitoring jarayonlarini axborot tizimlari, axborot modelini qurish tamoyillari, masalani yechishda algoritmlash usullarini hamda suvli qatlamda sath o'zgarishi davomida geomigratsiya jarayonlarini matematik modellashtirish usullari va axborot muhitining tuzilishini o'rganishga bag'ishlangan.

Kognitiv modellar – bilish jarayonlarini, ya'ni insonning axborotni – bilish, qabul qilish, saqlash, ishlov berish va undan foydalanish jarayonlarini o'rganishdir. Bunda yer osti suv tutuvchi qatlamli muhitlar geofiltratsiyasi jarayoni sivilash xususiyatlarini hisobga olgan holda chegaraviy shartlar modellari umumiy takomillashtirilgan. Yer osti gidrosferasini gidrodinamik jarayonlari, ya'ni geofiltratsiya va geomigratsiya fizika-kimyoviy hodisalari ma'lumotlari bo'yicha tadbirlar to'g'risida, birinchi navbatda, gidrogeologik monitoringi va atrof-muhit parametrlarini o'lchash orqali olingan tabiiy va texnogen obyektlarning haqiqiy holati to'g'risidagi ishonchli va to'liq ma'lumotlarga asoslanadi. Shahar va uning atrofi megapolisining texnogen sharoitida yer osti suvi kuzatuv uchun axborot oqimi (1-rasm) va o'lchov tizimlari alohida ahamiyatga ega.

Axborotlar relyatsion bog'lanish ma'lumotlar bazasi jadvallarida, o'zaro infratuzilmasi bo'yicha tashkil etilgan turli formatdagi fayllar to'plami shaklida saqlanadi. Skvajinalar va buloqlar kabi boshqa kuzatuv obyektlari haqidagi barcha ma'lumotlar (joylashuvi, maqsadi, holati, tuzilishi, litologiyasi) markazlashtirilgan tarzda saqlanadi; birlamchi va qayta ishlangan faktografik ma'lumotlar (suvning hosil bo'lishi, eksperimental filtrlash ishlari va namunalarning kimyoviy tahlil ma'lumotlari, geofizik tadqiqotlar) ma'lumotnoma va qo'llab-quvvatlovchi ma'lumotlar va hujjatlar sifatida arxiv va fondga doir bazalarda saqlanadi.

Sanoat standartidagi relyatsion ma'lumotlar bazasidan foydalanish axborot tizimidagi boshqa ilovalari bilan integratsiya qilish va foydalanuvchilarning ma'lumotlarni olish huquqlarini farqlash imkoniyatini beradi (1-rasm).

Axborot oqimlari, ma'lumotlarga ishlov berish usullari, modellari sxemalari va tashkiliy jarayonlar – tadqiqotning dolzarbligining hal qiluvchi omillarini, ya'ni jamiyat rivojlanishining zamonaviy tendensiyalarini o'z ichiga oladi: raqamlashtirish, globallashtirish, axborotlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalarini inson faoliyatining barcha sohalariga joriy etish, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni jadallashtirish. Geologik sohani rivojlanishida tashkiliy boshqaruv vazifalarining murakkabligini va monitoring faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi axborot tizimlariga yangi talablarni qo'yadi.



**1-rasm. Hidrogeologik monitoringining axborot oqimlari tizimi.**

Binobarin taklif qilingan sxema va yondashuvlardan kelib chiqib, matritsali usul asosida hidrogeologik axborot oqimlarining rasmiy konseptsiyalari ishlab chiqiladi. Ushbu yondashuvga ko'ra, model – axborot oqimlarining turli tomonlarini aks ettiruvchi ma'lum turdagi matritsalar to'plamidir.

Formal ravishda biz hidrogeologik axborot oqimlarining rasmiy birlashtirilgan konseptual modelini (1) quyidagicha aniqlaymiz:

$$G = \{R, U, P, X, Z, W\}, \quad (1)$$

bu yerda modelning asosiy komponentlari quyidagicha:

$R = \{r_1, r_2, r_3, \dots, r_n\}$  – rejim elementlari to'plami;

$U = \{u_1, u_2, u_3, \dots, u_n\}$  – rejim elementlari turi to'plami;

$P = \{p_1, p_2, p_3, \dots, p_n\}$  – tarkibiy tuzilmaviy elementlar to'plami;

$X = \{x_1, x_2, x_3, \dots, x_n\}$  – tizimda o'lchanishi, to'planishi, ishlov berish, qayta ishlanishi va saqlanishi kerak bo'lgan ma'lumotlar to'plami;

$Z = \{z_1, z_2, z_3, \dots, z_n\}$  – hidrogeologik monitoring jarayonida bajaradigan asosiy funksiyalar ro'yxati;

$W$  – ko‘rsatilgan  $W = \{U, P, X, Z\}$  elementlar orasidagi bog‘lanishlar to‘plamidir, gidrogeologik rejim elementlarining turi, tarkibiy tuzilishi hamda tizimda o‘lchanishi, to‘planishi, ishlov berish, qayta ishlanishi va saqlanishi kerak bo‘lgan ma‘lumotlarning o‘zaro aloqasidir. Bundan tashqari,  $r_i \in R, i = \overline{1, n}$ ,  $n$  to‘plamining elementlari parametrlar (2) to‘plami bilan tavsiflanadi:

$$r = \langle p_j, p_l, u, z, m \rangle, \quad (2)$$

bu yerda  $p_j$  –  $r$ -rejim elementleridan kelib chiqadigan tarkibiy element,  $p_l$  –  $r$ -rejim elementlerini o‘z ichiga olgan struktura elementi,  $u$  – gidrorejim elementlari turi,  $z$  – nazorat funksiyasi,  $m$  – ma‘lum vaqt oralig‘ida uzatiladigan ma‘lumotlar soni. Ko‘rsatilgan  $U, P, X, Z$  elementlar orasidagi o‘zaro bog‘lanishlar  $W$  quyidagicha (3) ifodalanishi mumkin:

$$W = \langle \psi_1(U, P), \psi_2(P), \psi_3(U, X), \psi_4(U, Z), \psi_5(Z, P) \rangle, \quad (3)$$

bu yerda modelning  $\psi_i, i = 1..5$  komponentlarining o‘zaro ta‘siri matritsalar ko‘rinishida tasvirlansa, bizning holatlarimizda bu  $B_1 - B_5$  – matritsalar bo‘lib, ular model elementlarining o‘zaro ta‘sirini tavsiflaydi va axborot oqimlarining intensivlik qiymatlari turli fizik-geologik ma‘nolarga ega (2-jadval) matritsalar elementlaridir. Endi  $B_{11}$  matritsa misolida matritsalarini va elementlarini shakllantirish qoidalarini ko‘rib chiqaylik. Xususiyatlar o‘rtasida kiruvchi ma‘lumotlar oqimining taqsimlanishini aks ettiruvchi  $B_1$  matritsasining minoriy qismidir.  $B_1$  matritsasi  $U$  to‘plam elementlari va  $P$  to‘plam elementlari orasidagi bog‘lanishni aniqlaydi va kiruvchi ma‘lumotlarning tizim elementlari o‘rtasida taqsimlanishini ko‘rsatadi. Matritsa elementi  $\psi_i, i = 1..5$ ,  $b_{i,j}^{(11)}$  model elementlari (4).

Taklif etilayotgan model axborot oqimlarining tuzilishi va miqdoriy xususiyatlarini turli tuzilmalarida ko‘rib chiqish imkonini beradi.

2-jadval

Model elementlari	Matritsalar nomi	O‘lchovlari	Xususiyatlari
$\psi_1(U, P)$	$B_1$	(m, r)	Rejim elementlari turi bo‘yicha
$\psi_2(P)$	$B_2$	(r, r)	Tarkibiy tuzilish elementlar turi bo‘yicha
$\psi_3(U, X)$	$B_3$	(m, q)	Axborot tuzilishi turi bo‘yicha
$\psi_4(U, Z)$	$B_4$	(m, k)	Gidrogeologik rejim jarayonida bajaradigan asosiy masalalar bo‘yicha
$\psi_5(Z, P)$	$B_5$	(k, r)	Gidrogeologik rejim tarkibiy tuzilmaviy elementlar turi bo‘yicha

$$b_{i,j}^{(11)} = \begin{cases} \lambda_{i,j}^{(11)}, & \text{agar u rejim ma'lumotlari p axborot manbalaridan,} \\ 0, & \text{aks holda.} \end{cases} \quad (4)$$

bunda  $i = \overline{1, m}$ ,  $j = \overline{1, r}$  matritsa o‘lchami (m, r).  $\lambda_{i,j}^{(11)}$  – axborot oqimining intensivligi bo‘lib, quyida ko‘rinishda bayon qilinishi mumkin (5).

$$\lambda_{i,j}^{(11)} = \sum_{R_{i,j}} \frac{K(r_n)}{\Delta\tau}, \quad (5)$$

bu yerda  $K(r_n)$  – funksiya, rejim elementlar sonini  $n$  – miqdorda qaytaruvchi  $r_n \in R_{i,j}$ ,  $\Delta\tau$  – davrdir, ya’ni belgilangan miqdordagi ma’lumotlar va ishlov beriladigan vaqt.  $R_{i,j} \subset R$  bilan – to‘plamning kichik to‘plamini deb belgilab, bu dastlabki to‘plamlarning  $\psi_R$  kesishmasi bo‘lib,  $R_{i,j}$  har bir vaqt oralig‘ida  $\tau_t$  ma’lumot turi, tuzilishining turlicha  $p_{b,j}$  teng bo‘lgan xususiyatlarga ko‘ra (6), dastlabki to‘plamning bo‘limi bo‘lgan  $R$  (ma’lumotni o‘z ichiga oluvchi strukturaviy element)

$$R_{i,j} = \psi_R(\tau_t, p_{b,j}). \quad (6)$$

Shunday qilib,  $\lambda_{i,j}^{(11)}$  elementlari  $B_1$  matritsa uchun quyidagicha (7) aniqlanadi

$$\lambda_{i,j}^{(11)} = \sum_{\psi_R(\tau_p, p_{b,j})} \frac{K(r_n)}{\Delta\tau}. \quad (7)$$

Modelni qurish deganda axborot bazasi ko‘rinishida taqdim etilgan (kuzatuv bosqichida olingan) ma’lumotlardan tasvirlangan turdagi matritsalar to‘plami ko‘rinishidagi modelga o‘tish jarayonini tushunamiz. Modelni qurilish jarayonida axborot aylanishining miqdoriy va vaqtinchalik xususiyatlari intensivlik qiymatlariga aylantiriladi.  $B_1$  matritsasini qurish metodologiyasining mohiyatini shundaki, aks ettiruvchi barcha  $b_{i,j}^{(11)}$  elementlarning qiymatlarini aniqlashdan iboratdir. Ya’ni kuzatuv bo‘limlari har xil turdagi axborotlarni qanday intensivlikda oladi. Buning uchun kuzatuv bosqichida olingan barcha axborotlar uchun ularning aylanish intensivligi qiymatini hisoblash va uni  $B_1$  matritsasining tegishli elementi bilan yig‘ish kerak.

Endi, kiruvchi ma’lumotlar oqimini monitoring jarayonining tarkibiy bo‘linmalari o‘rtasida taqsimlanishini aks ettiruvchi  $B_1$  matritsasining modelini yaratish metodologiyasining individual bosqichlarini, ya’ni algoritmi ishlab chiqildi:

- 1)  $P$  to‘plam elementlarining ( $r$ ) sonini aniqlovchi,  $P' \subset P$  konstruktiv elementlar bilan  $P'$  to‘plamni hosil qilish;
- 2) turli xil  $U' \subset U$  axborotlar turlarini shakllantirish,  $U'$  to‘plamning elementlar sonini ( $m$ ) aniqlash;
- 3)  $R$  bo‘yicha ma’lum tadqiqot chegaralari bo‘yicha axborotlar aylanishi to‘g‘risidagi tuzilmaviy ma’lumotlarni tanlash:  $R' \subset R$ ;
- 4) tanlangan model miqyosi, ya’ni shkalasi bo‘yicha manba ma’lumotlarini guruhlash;
- 5) o‘lchamli ( $r, q$ ) bo‘lgan  $B_{11}$  matritsasini qurish;
- 6)  $B_{11}$  matritsasini to‘ldirish (4) formula bo‘yicha 1-2-bosqichlarda tanlangan ma’lumotlar to‘plamining har bir elementi uchun:
  - a) joriy monitoring uchun kiruvchi axborotlar turini  $\tau_t$ , ( $t=1, \dots, n$ ) aniqlash;

b) ushbu monitoring jarayonini o'z ichiga olgan  $p_j$ ,  $j=1, \dots, m$  tuzilmaviy elementining ta'rifi;

c) (7) ifodaga muvofiq axborot oqimining intensivligini aniqlashda  $\lambda_{i,j} = \frac{k}{\Delta\tau}$ , bu

yerda  $k$  – ma'lumotlar bazasi jadvalidagi maydon qiymati.  $\Delta\tau$  ma'lumotlar bazasini kompilyatsiya qilishda, oldindan belgilangan muddat;

d)  $\lambda_{i,j}$  bo'yicha olingan qiymatini intensivligini  $B_2$  matritsaning tegishli elementiga ifoda qo'shish  $b_{i,j}=b_{i,j}+\lambda_{i,j}$ , bu yerda ( $i=1,\dots,r$ ) va ( $j=1,\dots,q$ ).

7) agar barcha ma'lumotlarga ishlov berilmagan bo'lsa 5-bosqichga o'tish.

Ushbu usulga o'xshash modelning qolgan elementlari  $B_2 - B_5$  matritsalarini qurish jarayoni, monitoring natijasida olingan va tizimlashtirilgan shaklda taqdim etilgan ma'lumotlar asosida ushbu turdagi modelni qurish usullari ishlab chiqildi va model elementlarini qurish usullari yaratildi. Axborot oqimlarining miqdoriy xarakteristikalarini asosida olingan modelni tahlil qilish imkonini beruvchi usullar yaratildi, bunda miqdoriy xususiyatlar hisobga olinadi. Kirish axborotlarini tahlil qilish va natijalarni chiqish ma'lumotlar singari shakllantirish nuqtai nazaridan bo'limlarning ish hajmini baholash  $p_j$   $j=1,\dots,m$ .

$$\Delta\lambda_j = \frac{\sum_{i=1}^m b_{ij}^{11}}{\sum_{i=1}^m \sum_{j=1}^q b_{ij}^{11}}, \quad \Delta\gamma_j = \frac{\sum_{i=1}^m b_{ij}^{13}}{\sum_{i=1}^m \sum_{j=1}^q b_{ij}^{13}},$$

bu yerda  $\Delta\lambda_j$  – kiruvchi ma'lumotlarni tahlil qilish orqali  $j$ -chi birligini yuklash yoki  $j$ -chi birligini shakllantirish orqali yuklash bo'lsa,  $\Delta\gamma_j$  chiquvchi ma'lumotlar  $b_{ij}^{11}$  va  $b_{ij}^{13}$ ,  $j$ -chiga mos ravishda  $B_2$  va  $B_5$  matritsalarining elementlari hisoblanadi.  $i$ -chi tarkibiy element bo'yicha axborotdan foydalanish koeffitsiyenti, uning asosida korxonadagi asosiy iste'molchilar va axborot yetkazib beruvchilarini aniqlash mumkin:

$$\rho_i = \frac{\sum_{j=1}^q b_{ji}^2 - b_{ii}^2}{\sum_{j=1}^q b_{ij}^2 - b_{ii}^2}, \quad \eta_i = \frac{\sum_{j=1}^m b_{ij}^2 - b_{ii}^2}{\sum_{j=1}^q b_{ji}^2},$$

bu yerda,  $b_{ij}^2$ ,  $B_2$  matritsaning elementidir.

$\eta_i$  – ishlov berilgan axborotni chiqish koeffitsiyenti olingan ma'lumotlarning ma'lum birligining chiqish ma'lumotlarida qanchalik to'liq aks etishini tavsiflaydi: Tashqi muhit bilan o'zaro ta'sir darajasi ulanish koeffitsiyenti bilan tavsiflanadi va u qanchalik baland bo'lsa, axborot nuqtai nazaridan monitoring jarayoniga tashqi ta'sirlarga shunchalik bog'liqdir:

$$\mu_i = \frac{\sum_{j=1}^m b_{ij}^2 + \sum_{j=1}^m b_{ji}^2 - 2b_{ii}^2}{\sum_{j=1}^q b_{ij}^2 + \sum_{j=1}^m b_{ji}^2 - b_{ii}^2}.$$

Olingan miqdoriy xarakteristikalar asosida monitoring jarayoni tuzilmasini va shunga mos ravishda axborot oqimlarini qayta tashkil etish bo'yicha qaror qabul qilish tartibi tuzildi. Qaror qabul qilish jarayonini qo'llab-quvvatlash uchun obyekt va obyekt parametrlari o'rtasida aniq matematik bog'liqlik mavjud bo'lmagan taqdirda muqobillarni tanlashga ta'sir qiluvchi mezonlarning qiymatlari bir nechta mezonlarga bog'liq bo'lgan qarorlarni qabul qilish imkonini beruvchi ko'p mezonli alternativlarni tartiblash usulidan foydalanish taklif etiladi.

Ushbu usulni qo'llash uchun dastlabki ma'lumotlar quyidagilardir:

$G_1, G_2, \dots, G_i, \dots, G_m$  – mezonlar to'plami  $i=1, \dots, m$  va  $\omega_i, i=1, \dots, m$  – qaror qabul qilish mezonlarining ahamiyati, yani muhimligi bo'lib, ekspert tomonidan qo'yilgan musbat son bilan tavsiflanadi,  $A_1, A_2, \dots, A_j, \dots, A_l$  – qaror muqobillari to'plami, (3-jadval)  $j=1, \dots, l$ , desak,  $a_{ij}$  – har bir variant uchun mezon baholashlarining qiymatlari tanlangan miqdoriy xarakteristikalar qiymatlari  $G_i, (i=1, \dots, m, j=1, \dots, l)$ . Mezonlar – sifatida ekspert tomonidan tanlangan axborot oqimlarining miqdoriy xarakteristikolari olindi (3-jadval).

Tavsiflangan mezonlar miqdoriy qiymatlari quyidagi jadval orqali beriladi.

3-jadval

	$A_1$	$A_2$	...	$A_l$
$G_1$	$a_{11}$	$a_{12}$	...	$a_{1l}$
$G_2$	$a_{21}$	$a_{22}$	...	$a_{2l}$
...	...	...	...	...
$G_m$	$a_{m1}$	$a_{m2}$	...	$a_{ml}$

Bunda kelishuv indeksleri  $\omega_i$  mezonlarining ahamiyatini baholashga asoslanib, ular quyidagicha ifoda asosida hisoblashadi

$$S_{A_m A_l} = \sum_{j \in Z_1, Z_2} \omega_j / \sum_{j \in Z} \omega_j,$$

bu yerda  $Z_1$  – shunday mezonlar to'plamiki, bunda  $A_m$  muqobilligi  $A_l$  muqobilidan afzalroq, ya'ni  $a_{im} > a_{il}$  shart bajariladi;  $Z_2$  shunday mezonlar to'plamiki, bunda  $A_m$  va  $A_l$  muqobillari ekvivalent bo'lgan mezonlar to'plami, ya'ni  $a_{im} = a_{il}$ .

$a_{ml}$  mezonlarini baholash qiymatlariga asoslanib, (3-jadval) bo'yicha kelishmovchilik indekslarining qiymatlari aniqlanadi, ya'ni:

$$\check{S}_{A_m A_l}(i) = \frac{|a_{im} - a_{il}|}{L_i}; \quad \check{S}_{A_m A_l} = \max_i \check{S}_{A_m A_l},$$

bunda  $i \in A_l$  bo'lib,  $L_i$  – inobatga olingan  $A_l$  to'plami kiritilgan  $i$ -mezon uchun shkala uzunligidir. Qaror qabul qilishga ko'maklashuvchi tartibi ushbu bosqichlarni o'z ichiga oladi:

**1-bosqich.** Ekspertlar tomonidan kelishuv indeksi  $S(1)$  va kelishmovchilik indeksi  $\check{S}(1)$  uchun chegara qiymatlarini belgilaydi.

